SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN: 2181-1342 (ONLINE)

№ 6 (3) - 2023

# ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

# АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

# ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ЭЛЕКТРОН ЖУРНАЛ
ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
ELECTRONIC JOURNAL

**ISSN:** 2181-1342 (Online)
**Сайт:** https://scienceproblems.uz
**DOI:** 10.47390/SP1342V3I6Y2023

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

***№ 6 (3)-2023***

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

### ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**ТОШКЕНТ-2023**

**БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

**ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

*07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

*08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

*09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаххаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети.

*10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич –филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

*12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:*

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа октори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби

*13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:*

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шохида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

*19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

*22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

*23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР*

Назаров Насриддин Атақулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

---

**ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

**Crossref DOI:**

Таҳририят Crossref DOI нинг расмий аъзоси ҳисобланади ва 10.47.390 DOI префиксига эга. Ҳар бир нашр ва илмий мақолага индивидуал Crossref DOI рақами берилади.

**Google Scholar**

Журнал Google Scholar (Академия) да индексацияланади.

---

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.
Муассис: "SCIENCEPROBLEMS TEAM" масъулияти чекланган жамият.

**Таҳририят манзили:**
Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:
scienceproblems.uz@gmail.com
Телеграм канал:
https://t.me/scienceproblems_uz

***МУНДАРИЖА***

**07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ**

*Аминов Хамидулла Абдирахимович -*
БОБУР ДАВРИДАГИ САМАРҚАНД ШАЙХУЛИСЛОМИ ........ 9-14

*Неъматов Рустам Абдуваид ўғли*
ИЛК ЎРТА АСРЛАРДА ХОРАЗМДА КЕЧГАН ЭТНОМАДАНИЙ ЖАРАЁНЛАР ........ 15-23

*Raxmanov Zafar Adilovich, Aloxunov Alisher Ahmadjonovich*
FARG‘ONA VODIYSI ARXEOLOGIK YODGORLIKLARI JOYLASHUV QONUNIYATLARI: TAHLIL VA MULOHAZALAR ........ 23-32

*Мансуров Музаффаржон*
СОВЕТ ИТТИФОҚИ ЙИЛЛАРИДА ЎЗБЕКИСТОНДА МАДАНИЙ ТУРИЗМНИНГ ТУРИЗМ ИНДУСТРИЯСИДАГИ ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ ........ 32-42

*Mirsoatova Sayyora Turg‘unovna, Muhsiddinov Ahrorbek Mamurovich*
FARG‘ONA MEZOLIT VA NEOLIT DAVRI JAMOALARINI O‘ZARO MADANIY ALOQALARI XUSUSIDA ........ 43-48

**08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ**

*Kurpayanidi Konstantin Ivanovich*
COVID-19 PANDEMIYASI OQIBATLARINI BARTARAF ETISH SHAROITIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYaLARNI JORIY ETISH MASALALARI ........ 49-55

*Mextonaliyev Ulug‘bek Erkinjon o‘g‘li*
KOMPANIYALAR SAMARALI BOSHQARUV TIZIMIDA ICHKI NAZORATNING O‘RNI ........ 56-65

*Абдуллаева Зульфия Иззатовна*
ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ПОВЕДЕНИЕ КЛИЕНТОВ ГОСТИНИЦ ........ 66-74

*Алимова Муниса Юлчиевна*
ҚИШЛОҚ АҲОЛИСИ ТУРМУШ ДАРАЖАСИГА ТАЪСИР ЭТУВЧИ ОМИЛЛАР ТАСНИФИ ........ 75-80

*Абдиева Наргиза Шухратовна*
ИЧКИ АУДИТДА ФИРИБГАРЛИК РИСКИНИ АНИҚЛАШ ВА БАҲОЛАШ ........ 81-91

*Тўхтасинова Дилдора Раҳмонбердиевна, Ахунова Маърифат Хакимовна*
ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОНДА РАҚАМЛИ ҲАЁТ ........ 92-97

*Tojimatov Izzatbek Ikromali o‘g‘li*
BOZOR ISLOHOTLARI SHAROITIDA MOLIYAVIY HISOBOTLARNI SHAKLLANTIRISH MASALALARI ........ 98-103

*Савинова Галина Анатольевна*
ОТЛИЧИТЕЛЬНЫЕ ЧЕРТЫ МСФО И НСБУ И ИХ ВЛИЯНИЕ НА СОСТАВЛЕНИЕ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ ........ 104-108

*Qodirov Sardorbek Isroiljon o‘g‘li*
QURILISH SANOATI KORXONALARI FAOLIYATINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH MASALALARI ........ 109-114

*Урдушев Хамракул, Мавлянов Мажид, Эшанкулов Сирожиддин, Розиева Гулхаё*
АГРОКЛАСТЕРЛАР ВА УЛАРНИНГ РИВОЖЛАНИШИДА РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ ЎРНИ ........ 115-125

*Худаярова Хуршида Абдуназаровна*
ЎЗБЕКИСТОНДА ИННОВАЦИОН БАНК ХИЗМАТЛАРИНИ ЖОРИЙ ЭТИШ МУАММОЛАРИ ВА ИСТИҚБОЛЛАРИ ........ 126-132

**09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ**

*Бойдадаев Абдуррохмон Толибжон ўғли*
РЕНЕССАНС ДАВРИДА ПАНТЕИСТИК ҚАРАШЛАРНИНГ ФАЛСАФИЙ ТАҲЛИЛИ...... 133-141

*Аликулов Хусниддин Акбарович*
ҲОЗИРГИ ДАВРДА ГЛОБАЛ ЭКОЛОГИК ХАВФ-ХАТАР ВА НАНОТЕХНОЛОГИЯЛАР . 142-151

*Саидова Камола Усканбаевна*
РЕНЕССАНС ДАВРИ САНЪАТИ – ЖАҲОН МАДАНИЯТИ АЖРАЛМАС ҚИСМИ СИФАТИДА ........ 152-156

*Shirinov Anvar Qanoatovich*
MARKAZIY OSIYODA INSON TARAQQIYOTI SOHASIDAGI STRATEGIYALARNING IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLILI ........ 157-162

*Хасанов Бобуржон Хакимович*
ЖАМИЯТ ТАРАҚҚИЁТИДА ОММАВИЙ НОРОЗИЛИК ҲАРАКАТЛАРИНИ ОЛДИНИ ОЛИШНИНГ ҒОЯВИЙ-МАФКУРАВИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ ........ 163-167

*Xodjayeva Fotima Nabixonovna*
AHMAD G‘AZZOLIYNING “SAVONIH” ASARI HAQIDA QISQACHA TASNIF ........ 168-172

**10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ**

*Rustamova Shaxnoza Abduraximovna*
MATN, TARJIMA TURLARI VA TARJIMADA TARJIMON MAHORATINING O‘RNI ........ 173-180

*Abdulloyeva Kamola Mirxon qizi*
MUALLIF DISKURSIV SHAXSI TUSHUNCHASI, STRUKTURASI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI ........ 181-191

*Turg‘unova Fazilat Rustam qizi*
PRAGMALINGVISTIKA NUQTAI NAZARIDAN SARLAVHA FUNKTSIYALARI ........ 192-197

*Saidov O‘lmas Raxmatovich*
O‘ZBEK TILI ISH YURITISH TERMINLARINING ETIMOLOGIK TAVSIFI ........ 198-206

*Xuramova Dildora Rahkmonkulovna, Axmedova Firuza Asrorovna*
O‘ZBEKISTONDA TARJIMONLARNING TARJIMA USLUBINI BERILISHI XUSUSIDA ........ 207-213

*Ataboyev Isroiljon Mirza o‘g‘li*
MADANIYATLARARO SIYOSIY MAKONDA TAJOVUZKOR SALOHIYATGA EGA NUTQ TA’SIRINING USULLARI ........ 214-219

*Murodova Nilufar Karomatovna*
BLOGERLIK FAOLIYATIDA MAHORAT MASALALARI ........................................ 220-224

*Ochilova Hilola Husan qizi*
XITOY TILIDA NOMINALIZATSIYA HODISASI XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR .......... 225-229

*Kuvonov Zarifjon Maxsiddin o‘g‘li*
NEMIS TILIGA CHET TILIDAN O‘ZLASHAGAN SO‘ZLARNING STRUKTURAL-SEMANTIK TADQIQI ........................................ 230-238

*Yakubova Nilufar Egamberganovna*
“MULLO NASRIDDIN” – TURKIY MATBUOT TARIXIDA MUHIM HODISA ........................ 239-245

## 12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР

*Абдуллаева Маликабону Эркин қизи*
ХАЛҚ ТАЪЛИМИДА МАЪМУРИЙ БОШҚАРУВ ВА МЕҲНАТ МУНОСАБАТЛАРИ БИЛАН БОҒЛИҚ КОРРУПЦИЯВИЙ ОМИЛЛАР ТАҲЛИЛИ ........................................ 246-256

## 13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

*Jumayev Rustam G‘aniyevich*
IJTIMOIY-GUMANITAR VA MUTAXASSISLIK FANLARNI INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA O‘QITISH ORQALI TALABALARDA FUQAROLIK POZITSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH ........................................ 257-263

*Бозорова Муслима*
ЭТНОПЕДАГОГИКА ТАЛАБА-ЁШЛАРДА ЎЗБЕКОНА МИЛЛИЙ ЎЗИГА ХОСЛИКНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ВОСИТАСИ СИФАТИДА ........................................ 264-270

*Samadova Sarvinoz Samad qizi*
YOSHLARNI BAG‘RIKENGLIK RUHIDA TARBIYALASHGA DOIR KOMPETENSIYALAR.... 271-275

*Жўраев Вохид Тожимаматович*
РАҚАМЛАШТИРИШ ШАРОИТИДА ЗАМОНАВИЙ ТЕХНОЛОГИЯЛАР АСОСИДА ТАЪЛИМ МУАССАСАСИНИ БОШҚАРИШ ........................................ 276-288

*Бозорова Назокат*
ИККИНЧИ ЖАҲОН УРУШИГА ОИД МАҲАЛЛИЙ МУЗЕЙ МАТЕРИАЛЛАРИ ЎҚУВЧИЛАРНИНГ ТАРБИЯВИЙ-ТАДҚИҚОТ ФАОЛИЯТИ ТАШКИЛ ЭТИШ ВОСИТАСИ СИФАТИДА ........................................ 289-295

*Satvoldiyev Faxriddin Akbarali o‘g‘li*
MAKTAB O‘QUVCHILARINI HUQUQIY TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISH TEHNOLOGIYALARI BORASIDA EKSPERIMENT ISHLARINI TASHKIL ETISH VA NATIJALAR TAHLILI ............ 296-301

*Sharipova Sitora Xaydarovna*
OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA RUS TILI FANINI O‘QITISHDA MUAMMOLI TA’LIMDAN FOYDALANISH ........................................ 302-307

*Isag‘aliyeva Sadafxon Muxammadaminovna*
BIOLOGIYA O‘QITISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INTERFAOL USULLARNI QO‘LLASH ........................................ 308-312

*Umarov Abdusamat Abdumalikovich, Xojimurodova Mahliyoxon Kenjavoy qizi*
OILA VA NIKOH SHAROITIDA AYOLLAR SPORTINING MUAMMOLARI ....................................313-317

*Sulaymanova Dildora Nazarovna*
LOYIHAGA ASOSLANGAN OʻQITISH TEXNOLOGIYASINING MOHIYATI VA MAZMUNI ...318-325

*Roʻziev Rustam Roʻzimurodovich*
YONGʻIN XAVFSIZLIGI MADANIYATI–ODDIYLIKDAN KOMILLIK SARI ....................................326-330

*Акрамов Баходир*
МАЛАКАЛИ ДАРВОЗАБОНЛАРНИ ЎЙИН ДАВОМИДА БАЖАРИЛАДИГАН ТЕХНИК-ТАКТИК ҲАРАКАТЛАРИ ТАҲЛИЛИ ..........................................................................................331-336

*Anvarjonov Ahrorjon Ahadjon oʻgʻli*
BOʻLAJAK TARIXCHILARDA TARIX FALSAFASI VA UNING ZAMONAVIY KONSEPSIYALARIGA DOIR BILIMLARNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI ..........................................................337-342

*Umarov Bekzod Azizovich*
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA PEDAGOGLARNING PROFESSIONAL KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MODELI ..........................................343-349

*Бекимбетова Дильфуза Оралбаевна*
РАЗВИТИЕ ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА И ГОСУДАРСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ .........................................................................................................350-356

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. -№ 6 (3)-2023.
ISSN: 2181-1342 (Online)
https://scienceproblems.uz

*13.00.00 – Педагогика фанлар*

**Samadova Sarvinoz Samad qizi**
Buxoro davlat universiteti
dotsenti, p.f.f.d.(PhD).

## YOSHLARNI BAG‘RIKENGLIK RUHIDA TARBIYALASHGA DOIR KOMPETENSIYALAR

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada yoshlarni bag‘rikenglik ruhida tarbiyalashga doir kompetensiyalarni shakllantirish zarurati, usul va vositalari haqida fikr yuritilgan.
**Kalit so‘zlar:** yoshlar, bag‘rikenglik, ta’lim, tarbiya, kompetensiya, akmeologik yondashuv, germenevtik yondashuv, motivatsion, kognitiv.

**Самадова Сарвиноз Самад кизи**
Доцент Бухарского государственного университета
кандидат педагогических наук, (PhD)

## КОМПЕТЕНЦИИ ПО ВОСПИТАНИЮ МОЛОДЁЖИ В ДУХЕ ТОЛЕРАНТНОСТИ

**Аннотация.** В данной статье обсуждается про необходимости, способов и средств по воспитанию молодёжи в духе толерантности.
**Ключевые слова:** молодёжь, толерантность, образование, компетенция, акмеологический подход, герменевтический подход, мотивационный, когнитивный.

**Samadova Sarvinoz Samad kizi**
Associate professor of Bukhara State University,
PhD in Pedagogical Sciences

## COMPETENCIES FOR EDUCATING YOUNG PEOPLE IN THE SPIRIT OF TOLERANCE

**Abstract.** In the following article discusses the necessity, ways and means of educating young people in the spirit of tolerance is disscussed.
**Keywords:** youth, tolerance, education, competence, acmeological approach, hermeneutical approach, motivational, cognitive.

DOI: https://doi.org/10.47390/SP1342V3I6Y2023N36

### Kirish

O‘zbekistonda ma’nan etuk, ruhan sog‘lom kamol topgan avlodni tarbiyalash uchun zarur imkoniyatlar bazasini yaratishga erishildi. Ta’lim-tarbiya samaradorligini oshirishda asosiy omil sifatiga qaralayotgan ta’lim texnologiyalaridan oqilona foydalanish va buning mevasi bo‘lgan talabalar bilish qobiliyatini o‘stirishdan iborat. Ta’lim texnologiyalarning afzallik tomoni shundaki, yoshlarni mustaqil fikrlashga, dunyoqarashini kengaytirishga,

tinglashga va mushohada etishga, intilish va izlanishga, tafakkurni rivojlantirishga, oʻz ustida mustaqil ishlashga oʻrgatadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Bagʻrikenglik tarbiyasi, yoshlarni bagʻrikenglik ruhida tarbiyalash dunyo miqyosida dolzarb masaladir. Rus olimlari A.M.Baybakov "Kichik guruhlarida oʻzaro tasirga kirishish sharoitida bagʻrikenglik tarbiyasi", R.R.Valitova "Bagʻrikenglik axloq muammosi sifatida", D.V.Zinovev "Boʻlgʻusi pedagogning pedagogik mahoratini ijtimoiy bagʻrikenglikni shakllantirish asosida oshirishda", I.V.Krutova "Gumanitar fanlarni oʻqitishda katta sinf oʻquvchilarida bagʻrikenglikka munosabatni shakllantirish ijtimoiy qadriyat sifatida", O.B.Skryabina "Yuqori sinf oʻquvchilarida kommunikativ bagʻrikenglik shakllanishining pedagogik shart-sharoitlari", mavzularida bir qator tadqiqot ishlarini amalga oshirganlar.

Oʻzbek olimlaridan E.G.Karimova "Oʻzbek tolerantligining etnoregional xususiyatlarini sotsiologik oʻrganish", Z.M.Husniddinov "Oʻzbekistonda diniy bagʻrikenglikni mustahkamlash omillari va muammolari", D.Alimova "Jadidchilik va diniy bagʻrikenglik", G.Aripova "Oilada tolerantlik tafakkurini shakllantirish" mavzularida tadqiqot ishlarini olib borganlar. Bagʻrikenglik tushunchasini asosan falsafiy, sotsiologik, psixologik nuqtai nazardan tadqiq qilganlar.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu tadqiqotda pedagogik kuzatuv, qiyosiy tahlil, analiz, sintez, soʻrovnoma, monitoring kabi tadqiqot va tahlil usullaridan foydalanilgan. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati yoshlarni bagʻrikenglik ruhida tarbiyalashda kompetensiyaviy yondashuvga asoslanganligi ularni tajriba-sinovdan oʻtkazilganligi, yoshlarni bagʻrikenglik ruhida tarbiyalashda taklif etilgan mezonlarga mosligi taʼminlanganligi bilan belgilanadi.

**Tahlil va natijalar.** Taʼlimning barcha bosqichlarida yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etish, ayniqsa, axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali va oqilona foydalanish va yuqori samaradorlikka erishishga alohida ahamiyat berish zarur. Jahon talablariga mos keluvchi raqobatbardosh, malakali kadrlar tayyorlashga, kelajak avlodni yuksak maʼnaviyatga, ijtimoiy hayotda roʻy berayotgan oʻzgarishlarga toʻgʻri munosabatda boʻlishga, milliy qadriyatlarimizning mohiyatini chuqur anglab etadigan barkamol shaxslarni tarbiyalash yoʻlida faoliyat olib boruvchi oʻqituvchi ijodkorlik, izlanuvchanlik, fidoiylik naminalarini koʻrsatishi lozim[2.4].

Kompetensiya - muayyan sohada shaxs egallagan nazariy bilim, koʻnikma va malakalarni kundalik hayotida duch keladigan amaliy va nazariy masalalarni yechishda foydalanib, amaliyotda qoʻllay olishdir.

Hozirgi vaqtda ijtimoiy kompetensiyalar bu – har bir kishining kundalik hayotda duch keladigan vazifalari bilan shu vazifalarni amalga oshirish uchun zarur boʻlgan malakalar tengligidir .(1-rasm).




**1-rasm. Ijtimoiy kompetensiyalar**

- intizomlilik – o‘zini-o‘zi tashkillashtirish, javobgarlikni his qilish, shaxsiy maqsadlar va ijtimoiy ko‘rsatmalarga bo‘ysunishga tayyorlik;

- mustaqillik – shaxsning ichki pozitsiyasi, o‘zgalarning yordamisiz faoliyatni takomillashtirish uchun zarur bilim, ko‘nikma va malaka hamda kompetensiyalar tizimi;

- ishchanlik – o‘quv, mehnat va ijtimoiy faoliyatda aniq maqsad asosida harakat qilish, o‘zining kuch va g‘ayratini safarbar etish;

- tashabbuskorlik – o‘quv va kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishish uchun yangi g‘oya va takliflarni ilgari surish hamda amaliy faoliyatda namoyon etishga qodirlik;

- maqsadga yo‘nalganlik – hayotiy pozitsiyasini aniq belgilay olish va o‘z maqsadiga erishish usullarini modellashtirish qobiliyati;

- mas’uliyatlilik – jamiyat tomonidan belgilangan xulq-atvor me’yorlariga muvofiq o‘z xatti-harakatlari natijalarining to‘liq anglanishi, berilgan topshiriq va vazifalarni o‘z vaqtida hamda bekamu-ko‘st bajarish istagi;

- mehnatsevarlik – shaxsning mehnat faoliyati jarayoniga ijobiy muno-sabatining namoyon bo‘lish shakli bo‘lib, xohish-istak, iroda va faollik kabi xususiyatlarning integrallashuvi;

- muloqotchanlik – birgalikdagi, hamkorlikdagi faoliyatga tayyorlik, shaxslararo munosabatga ochiqlik, o‘zaro hurmat va samimiylik asosida ichki hissiyot va intilishlarini namoyon etish;

- olijanoblik – doimiy yordamga, muruvvat va saxovat ko‘rsatishga shaylik, boshqalarning yutuqlari va qayg‘ulariga hamdard bo‘lish;

- qat’iylik – aniq va to‘g‘ri qarorlar qabul qilish asosida masalaning echimini topishda jonbozlik ko‘rsatishga doir shaxsning irodaviy sifati.

Yoshlarni bag‘rikenglik ruhida tarbiyalashga doir kompetensiyaning muhim komponenti bo‘lgan ko‘nikmalarni rejalashtirish, individual va jamoa ishini uyg‘unlashtirish, motiv hosil qilish, guruh faollari bilan ishlash va ularning faoliyatini muvofiqlashtirish, nazorat qilish va hisobga olish, o‘zini-o‘zi nazorat qilish, jamoa a’zolari o‘rtasida vazifalarni taqsimlash

va oʻz vaqtida ularning funksiyalarini maqbullashtirish kabi muhim jihatlarni oʻz ichiga qamrab oladi [4.1].

Bagʻrikenglik ruhida tarbiyalash oʻzaro bir-biri bilan aloqador quyidagi komponentlarga yaxlit tizim sifatida qarashni talab etadi:

bagʻrikenglik ruhida tarbiyalash tuygʻusi – intuitsiya, psixologik eruditsiya va novatorlik uygʻunligi;

emotsional-irodaviy ta’sir koʻrsatish – jamoani muammolar echimini izlab topishga jalb etish, ularning kuch va imkoniyatlarini toʻgʻri baholay olish, hamkorlikdagi faoliyatni tashkil etish;

tashabbuskorlik faoliyatiga moyillik – emotsional his-tuygʻu, faollik koʻrsatish, qat’iy hayotiy pozitsiyasini tarkib toptirish bilan izohlanadi.

Bagʻrikenglik faoliyati deganda umumiy maqsadga erishish uchun ta’lim oluvchilar guruhini uyushtirishga yoʻnaltirilgan oʻzaro aloqador harakatlar tizimi tushuniladi. Tajriba-sinov ishlari natijasida yoshlarda bagʻrikenglikka doir kompetensiyalarni shakllantirish mezonlari sifatida quyidagilar aniqlandi:

motivatsion (bagʻrikenglikka doir kompetensiyalarni egallash, bagʻrikenglik faoliyatini amalga oshirishga doir motivlar tavsifi);

kognitiv (shaxs va jamoaning oʻziga xosliklari, bagʻrikenglikka doir va oʻquv faoliyatining maqsad, vazifalarini tushunish, bagʻrikenglikka doir faoliyat mazmuni, tuzilishi va texnologiyasiga doir bilimlar);

faoliyatga doir (ishni rejalashtirish, individual va jamoa ishini uygʻunlashtirish, motiv hosil qilish, guruh faollari bilan ishlash va ularning faoliyatini muvofiqlashtirish, nazorat qilish va hisobga olish, oʻz-oʻzini nazorat qilish);

shaxsiy-individual (ijtimoiy ta’sir koʻrsatishga qobiliyatlilik, talabchanlik, tanqidiylik, qabul qilingan me’yorlardan ogʻishishni tahlil etish qobiliyati).

Akmeologik nuqtai nazardan bagʻrikenglikka doir kompetensiyalar tizimi rivojining tezligi, natijaviyligi, oʻziga xosligini, bundan tashqari, talabalarni bagʻrikenglik ruhida tarbiyalashga doir faoliyatni idrok etish, amaliyotga tatbiq etish qobiliyatini hamda mazkur jarayonning amalga oshishini ta’minlovchi psixologik mexanizm refleksiyani tavsiflash uchun tayanch tushuncha vazifasini bajaradi.

Bagʻrikenglikka doir kompetensiyalar tizimi ham, oʻz navbatida, qoʻshqatlamli koʻrinishga ega: birinchidan, unda xilma-xil sifatlar kiritishga kamroq yoki koʻproq darajada bir xil munosabat asosi bor boʻlsa, ikkinchidan, aniq vaziyat bilan bogʻliq vaqtinchalik oʻzgaruvchan qatlam mavjud boʻladi. Birinchi qatlamning bosh tavsifi ta’lim oluvchilarning bagʻrikenglik faoliyatiga va oʻzini-oʻzi rivojlantirishga qodir ekanligida namoyon boʻlsa, vaziyatli qatlamning asosiy jihati shaxs va jamoaning oʻziga xosliklari va shart-sharoitlari, ya’ni ishtirokchilarning faoliyat natijasiga ijobiy munosabati, yangi muhitni qabul qilishga turli guruhlarning roziligi kabilarga bogʻliqlikda koʻrinadi.

Germenevtik nuqtai nazardan yoshlarni bagʻrikenglik ruhida tarbiyalashda, ularda bagʻrikenglikni rivojlantirishda shaxs faolligining ichki potensialiga alohida e’tibor qaratish lozim. Ana shu sababli pedagogik ta’sir yoshlarning oʻz-oʻzini anglash jarayonidagi tartibsiz harakatlanishni e’tiborga olishi, tabiiy harakatlar va faollikning yuqori darajasi bilan ham moslashishi zarur.

Yoshlarni bagʻrikenglik ruhida tarbiyalashda namoyon boʻluvchi psixik tajribalariga, uning ichki olamiga murojaat etish bilan bevosita bogʻliqdir. Tadqiqot natijalari psixik kechinma refleksiya orqali oʻzlashtirilishi, xulq-atvor reaksiyalari bagʻrikenglikni rivojlantirish predmeti boʻlib xizmat qilishi lozimligini koʻrsatdi.

Yoshlarni bagʻrikenglik ruhida tarbiyalashda germenevtik tarbiya texnologiyalaridan foydalanish, ularning ichki kechinmalari, xotiralari, tasavvurlari va orzu-maqsadlarini faollashtirishga alohida e'tibor qaratilishi lozim. Mazkur holatda yoshlarning verbal ijod namunalari pedagog tomonidan bagʻrikenglik sifatlariga ega shaxsning qadriyatlar tizimi sifatida qabul qilinishi maqsadga muvofiq [3.2].

Germenevtik yondashuv asosida yoshlarni bagʻrikenglik ruhida tarbiyalashda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar ularning hayot ma'nosini anglashi, individuallikning toʻliq namoyon boʻlishini hisobga olish lozim, degan xulosaga kelindi.

Bugungi kunda yoshlarda ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik, dinlararo bagʻrikenglik kabi milliy gʻoyamizning asosiy yoʻnalishlarini shakllantirish ta'lim muassasalaridagi ma'naviy – ishlar mazmunidan chuqur oʻrin olgan. Chunki, huquqiy demokratik davlat va erkin fuqarolik jamiyati barpo etish – Oʻzbekiston xalqining milliy taraqqiyot yoʻlidagi asosiy maqsadlaridan biri ekanligini har bir talaba chuqur his etishi va uni oʻz ongiga singdirishi ta'lim muassasalari oʻqituvchilari oldiga ulkan vazifalar qoʻymoqda [5.4].

Qaysi davlat, qaysi jamiyatda jamoat a'zolari ma'naviy jihatdan baquvvat or-nomusli, mexr-shafqati kuchli, vijdoni pok, bilimdon, mexr-oqibatli boʻlsa, bu davlat, bu jamiyat badavlat, oʻziga toʻq, farovon boʻlishi azaldan ma'lum. Binobarin, yangi fuqarolik jamiyati qurish yoʻliga oʻtgan har qanday davlat ma'rifat va ma'naviyat masalalariga, xususan, ma'naviyatga, ma'naviy tarbiyaga jiddiy e'tibor bermogʻi shart [1.15].

Vatanimiz kelajagi boʻlgan yoshlarga hozirgi zamon talablari darajasida ta'lim va tarbiya berish, ularni ma'naviyati yuksak, ongi har qanday salbiy ta'sirlarga nisbatan bardoshli qilib voyaga etkazish – bugungi kun ta'lim muassasalarining asosiy vazifasidir, chunki faqat ana shunday insonlargina kelajakda odil jamiyat poydevorini yarata oladilar.

## Adabiyotlar/Литература/References


1. Xolikov E, Siddikov B, Rustamov M, Mirzaev A. "Qalban ulgʻayish davri" T; "Extremum press" 2011y.
2. Samadova S. S. K. The significance of the heritage of ancestors in upbringing of harmonious generation //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 3.
3. Kizi S. S. S. Tolerance of future teachers in the further development of interethnic relations in education //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. – 2020. – Т. 8. – №. 2.
4. Samadova S. S. K. Формирование толерантного сознания в личности ученика. – 2020. – №. LXXIV.
5. Samadova S. Yoshlarni bagʻrikenglik ruhida tarbiyalashning pedagogik asoslari // Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2021. – Т. 3. – №. 3.

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

**ISSN:** 2181-1342 (Online)
**Сайт:** https://scienceproblems.uz
**DOI:** 10.47390/SP1342V3I6Y2023

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ 6 (3) – 2023*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари"** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис**: "SCIENCEPROBLEMS TEAM" масъулияти чекланган жамият

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).